



ISM HAM MA'NAVIYATDIR

Zuhra Ismoilova Usmonovna

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti Amaliy filologiya ta'lim yo'nalishi 1-kurs 223-guruh talabasi. @zuhraismoilova776@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ismning inson hayotida o'rnini, farzandimizga ism tanlayotganimizda ma'nosiga e'tiborli bo'lishimiz kerakligi haqida so'z boradi. Shuningdek maqolada umumiy o'zbek tili haqida fikr yuritiladi. Hozirgi kunda o'zbek tili rivojiga e'tibor oshganligi quvonarli holatdir, ona tilimizni sofligini saqlash har birimizning vazifamizdir!

Kalit so'zlar: Korxonalar, tashkilot nomlari, ma'naviyat sektori, imlo, lug'aviy ma'no, ism, Abu Muso, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v), Elif, Saqina.

Yaqinda Behbudiyning "Jaholat dardlaridan" maqolasini o'qib qoldim. Unda shunday deyilgan "shaharlarda, do'kon va korxonalarining tepasida ruscha musulmoniy xat ila "Obdukodir", "Pathulla", "Sanatullo", "Obduraxmon" va bundan ham g'alatiroq yozilib osilgan lavhalar bordur. Shunday g'alat ketaversa, 20-30 sana so'ngra xalq yanadan avomroq bo'lub, musulmon ismlari ziyadaroq buzulur", – degan so'zlarni o'qib hozirgi kunda ham turli xil reklama afishalarining, korxonalar, tashkilot nomlarining xato yozilganini uchratib qolar ekanman naqadar haq so'zlar yozilganligiga ishonchim komil bo'ldi. Bundan tashqari shu maqolada ota-onaning burchlaridan biri bo'lgan farzandiga chiroyli ism qo'yish ekanligi alohida uqtirilib o'tilgan.

Farzandiga kinofilm qahramonlari, estrada yulduzlari, taniqli qo'shiqchilar ismini Ishani, Ronaldo, Izaura deb qo'yuvchilar bor, buning biror bir yomon tomoni yoq, albatta. Bu masalaga boshqa tomondan qaraydigan bo'lsak, yillar o'tgach bu ism bilan ataladigan farzandlar ismlaridan uyalish holatlari uchrab turadi. Farzandlarimizga shunday ismlarni qo'yishimiz kerakki, bugun jarangdor eshitilgan ism vaqtlar o'tib eskirmasin. Ular o'z ismlari bilan faxrlanib yursin. Ruhshunoslarning ta'kidlashicha, inson qulog'iga eng yoqimli eshitiluvchi so'z uning ismi ekan.

Hadislarda keltirishicha: Abu Muso al-Ash'ariy (r.a.) aytadilar: "O'g'lim tug'ilganida Payg'ambarimiz (s.a.v) huzurlariga bordim. U zot unga "Ibrohim" deb ism qo'ydi va xurmo bilan tahnik qildilar. Baraka tilab duo qildilar va menga uzatdilar". Farzandga ism qo'yish bola haqiga yaxshiliklarni Allohdan duo qilib so'rash yaxshi amallardan ekan. Abu Dardodan rivoyat qilinadi: Rasululloh (s.a.v) aytadilar: "Batahqiq, qiyomat kuni sizlar o'z ismlaringiz va otalaringizni ismlari bilan chaqirilasizlar. Bas, (shunday ekan) ismlaringizni go'zallashtiring." Farzandga yaxshi ism qo'yganidan keyin uni chala yarim qilmay to'liq va go'zal talaffuz qilish lozim. Shu mavzu yuzasidan ma'lumot to'plar ekanman, ismlar ma'nosi haqida qiziqarli ma'lumotga ko'zim tushdi. "Saqina" ismi arabcha "kema", "Elif" ismi arab alifbosining bosh harfi "Alif" ma'nosini bildirar ekan. Ba'zida kishilar do'sti yoki boshqa birovni o'z ismi bilan emas, aksincha, ismini buzilgan shakli laqab bilan chaqirishlarini kuzatamiz. Laqab qo'yish bizda asosan salbiy ma'noda ishlatilsa-da, aslida laqab birovning sha'ni, qadr-qimmatini (xon, amin) ko'tarish yoki past (ko'r, kar, cho'loq, g'ilay) sanash



hisoblanadi. Oddiy so'zlashuvdan tortib reklama, e'lonlargacha kishi ta'bini xira qiladigan xatolarning uchrashi ayanchli holat. Xatolar shunchaki imlo bilan bog'liq bo'lsada, biroq ular lug'aviy ma'noga ham ta'sir qilmoqda. Misol uchun guvohnomada "Sapar" deb fuqaroning ismi yozilgan, fuqaro ismidagi xato yozilgan "Sapar" so'zini pasport olganda "Safar"ga o'zgartirmoqchi bo'ladi, bu esa tabiiyki ortiqcha qog'ozbozlik, yugur-yugurga olib keladi. Shuning uchun xatolarni o'z vaqtida tuzatish kerak.

Davlatimiz rahbarining 2023 yil 16-17 noyabr kunlari viloyatimizga tashrifida bergan topshiriqlariga asosan respublikada birinchi bo'lib vohamizda "Ma'naviyat sektori"ni tashkil etish bo'yicha "Surxondaryo tajribasi" yo'lga qo'yildi. Ma'naviyat sektorini tashkil qilish, ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqarorlashtirish bilan birga, aholi keng qatlamini kitobxonlikka jalb etish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, madaniyat va san'atga oshno qilish, unutilib ketilayotgan milliy qadriyatlarimiz va an'analarimizni ommalashtirish hamda xalqimiz orasida mehr-oqibat tuyg'ularini kuchaytirish kabi bir qator muhim vazifalarni maqsadga aylantirdi. Professor Begali Qosimov insonlarni "Ma'naviyatga yetaklab, kerak bo'lsa, majburlab eltish kerak" degan edi. Zero Yusuf Xos Hojib ham ta'lim-tarbiya berishda majburlash lozimligini qayd etgan. Davlatimiz rahbari "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir", deb bejiz ta'kidlamadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ism ham ma'naviyat belgisi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Davidov Y. J. KO 'P MA'NOLILIK HODISASINING YUZAGA KELISH YO'LLARI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B2. – C. 500-503.
2. Davidov Y. J. WORD FORMATION PATTERNS IN UZBEK LANGUAGE //International Conference on Agriculture Sciences, Environment, Urban and Rural Development. – 2021. – C. 16-21.
3. Davidov Y. J. The Phenomenon of Polysemy and Different Aspects of Conversion //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 12. – C. 245-247.
4. Давыдов Ю. Д., Базаров Ш. А. ФЕНОМЕН НЕОДНОЗНАЧНОСТИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ИСКУССТВА //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2021. – Т. 4. – №. 7.
5. Mahmudxo'ja Behbudiy. Jaholat dardlaridan.
6. Hadislar
7. O'zbek tilining imlo qoidalari.